

## TOHIR MALIK HIKOYALARIDA INTERMATNLARNING AHAMIYATI

**Jurayeva Mavludaxon Abdulxamid qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Intertekstuallik - bu matn ma'nosini boshqa matn bilan shakllantirish va o'xshash adabiyot asarlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish asnosida Tohir Malik hikoyalaridagi ahamiyatini qisman tahlil qilishga qaratilgandir. Zero, adabiy asarlar ila ma'lum bir yo'nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko'rsatish mumkin. Bu borada adib hikoyalaridagi iqtiboslarning intermatn sifatidagi ahamiyati kattadir.

**Kalit so'zlar:** Intertekstuallik, iqtibos, epigraf, badiiy maqsad, estetik vazifa, ixtiyoriy intetekstuallik, lisoniy shaxs.

Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonga juda kuchli ta'sir o'tkaza oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ulari va ongini tarbiyalashda ulkan ro'l o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan kitobxon-o'quvchi ham hayotning turli jabhalariga kirib boradi, qahramonlar timsolida atrofdagi insonlarning xarakterlarini tushunib yetishga intiladi, atrofida sodir bo'layotgan hodisalarning mohiyatini anglab yetishga harakat qiladi. Buyuk adiblarimizdan biri Oybek ta'biri bilan aytganda, adabiy asarlar turmushni jonli ko'rsatib, odamlarning fikr va tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladi. Adabiy asarlar ila ma'lum bir yo'nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko'rsatish mumkin. Bu borada Tohir Malik hikoyalaridagi iqtiboslarning ahamiyati kattadir. Chunki, muallif bu asarlarning inson ruhiyatiga ta'sirini oddiy voqea-hodisalar bilangina emas didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hadis va Qur'oni Karimdan namunalar vositasida bergan. Tildagi estetik vazifani ishga solish uchun ijodkor o'z badiiy niyatiga muvofiq ravishda tildagi bitmas-tuganmas ifoda imkoniyatlaridan foydalanadi. Badiiy matnni tarkiblashda har bir yozuvchining o'z tanlagan yo'nalishi bor. Lekin badiiy matnning tarkiblanishini o'rganishdagi muhim masalalardan biri intertekstuallikdir. Ya'ni ijodkor o'zi tasvirlayotgan voqelikdan tashqari o'tmish va o'ziga zamondosh bo'lgan adabiyot bilan hamkorlikda ish ko'radi, doimiy muloqotda bo'ladi. Natijada asarlararo adabiy ta'sir yuzaga keladi va bu ba'zi o'rinlarda o'xshash asar va ba'zi o'rinlarda iqtibos tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralsa intertekstuallik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xususan T. Malikning "Nomus" hikoyasi tarkibidagi "Qo'li olovda kuymaydigan kishi bayonida" qismi rivoyatlarda keltirilgan yosh tilanchi qizning duosi ila unga ehson bergan kishining qo'li olovda

kuymasligi haqidagi rivoyat tasviri bilan adabiy muloqotda bo‘lgan. Yoki bo‘lmasa, shu hikoyaning “Shahanshohning talabi bayonida” qismidagi – *Kulbangizda bir ajib gul chiroy ochibdirkim, yaminuddavla va aminulmilla shahanshoh bul gul ila o‘z bog‘ini yasatmoq istaydir*” jumlasini o‘zbek adabiyotiga ilk roman janrini olib kirgan adib A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Xudoyorxonning Ra’noga ko‘z tikishi voqeasi bilan adabiy aloqa qilgan deyish mumkin. Yana bir o‘rinda esa yozuvchining nafaqat, zamondosh va o‘z davriga yaqin adabiy asarlardan voqif ekanligini, balki mumtoz adabiyotimiz darg‘asi bo‘lmish Farididdin Attor ijodidan ham xabardor ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ya’ni yana shu hikoya tarkibidan o‘rin olgan “Benomus qayin uka bayonida”, “Xabis qul va nomard yigit bayonida”, “Ko‘zlari ko‘r uch gunohkor banda bayonida” qismlarida bosh qahramon ijrosidagi Mo‘mina obrazi Farididdin Attorning “Ilohiynoma” asaridagi “Pokiza ayol sadoqati” nomli qismida nomi yashirin holda kelgan ayol obrazi bilan o‘xshash. Bu fikrlar bilan Tohir Malik asarlarida ko‘chirmakashlik bor ekan degan noto‘g‘ri gumonga borish to‘g‘ri emas, albatta. Chunki, yuqoridagi aytilgan fikrlar tasdig‘iga ko‘ra yozuvchi bu asarlarning ta’sir kuchini orttirish, unutilish arafasida turgan asarlarni yodga olish barobarida adabiy aloqa o‘rnatgan. Umuman olganda, tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralsa, muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligi hisoblanadi. Intertekstuallikning matn tarkibida bo‘lish yoki bo‘lmasligi yozuvchi badiiy maqsadi bilan bog‘liq. Ammo badiiy matn tarkibida boshqa matn unsurlarining bo‘lishi matnni lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish jarayonida alohida ahamiyat berishni talab qiladi. “Matnlararo aloqalar” termini esa, avvalo, bir matn ichidagi matnlar aloqasiga emas, balki alohida-alohida matnlar o‘rtasidagi aloqaga ishora qiladi, qolaversa, termin tarkibidagi aloqa so‘zi ham butunlik sifatidagi matn hodisasi mohiyatini xiralashtiradi.<sup>1</sup> Badiiy matnga olib kirilayotgan o‘zga matn unsuri muallif ijodiy niyatiga qarab matn strukturasi turli o‘rinlarida kelishi mumkin. Ijodkor xohlasa ya’ni badiiy matn talabiga ko‘ra intetmatnlar yoki asarning sarlavhasida, yoki epigrafida yoki asar tarkibiy qismida keladi. Quyida ana shunday epigrafda keltirilgan intermatnga e’tibor qaratamiz:

*Nomussizlik gar ilashsa hikoh ipiga  
Ayol qalbi shu qadar qonsiragayki,  
Topolmaysiz yer yuzidan bunaqasini...*

(Evipid. “Medeya”. Asqar Qosim tarjimasi).

Keltirilgan parcha Qasos hikoyasiga epigraf sifatida keltirilgan. Aytish mumkinki, bu epigraf yordamida yozuvchi maqsadini qisman ko‘rish mumkin, ya’ni bu o‘rinda epigraf asarning badiiy mazmunini qisman nima haqida ekanini tushunishga

<sup>1</sup>Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2008. – B.116.

undaydi va o'quvchi tomonidan qanday voqea deb o'qishda davom etishga ishtiyoq uyg'otadi.

*Onagdan bosh tovlama, oshmasin dardi,*

*Hayot toji erur oyog'in gardi...*

(Rudakiy)

“Voy, onajonim” hikoyasiga epigraf sifatida tanlangan ushbu baytdan esa onani ardoqlash hamisha muhim ekanligi kabi ekspressivlikni tushunish mumkin. Yoki bo'lmasa adibning “Alvido, Otello” hikoyasiga tanlangan epigrafga ham e'tibor qaratish bilan uning intermatn tanlash borasidagi mahoratiga ham tahsin aytish mumkin: “Agar rivoyatlar haqiqatga aylanib, mening ko'rganlarimni yer Chig'atoyga yetkazsa, abror Hidoyatov, shubhasiz, go'rida tik turur edi”. Eng ahamiyatli jihati shundaki, yozuvchi o'zi xayoliy deya e'tirof etgan hikoyaga hayotiy voqelikka asoslangan fikrlar intermatn sifatida tanlangan.

Adabiyotshunoslikda “allyuziya” degan tushuncha bor bo'lib, u tilshunoslikdagi intermatnga ishora qiladi, ya'ni biror badiiy sarga tarixiy voqea yoki mashhur asarlarga ishora qiladi: Intertekst hodisasi matnlarning o'zaro "aloqasini" va ularning aniq tematik birligini taxmin qiladi. Muallifning intertekstualligini qarz olish yoki plagiat, deb atash mumkin emas chunki bu atama aslida ko'ringanidan ancha kengroq. Intertekstualizm deganda kommunikativ, semiotik madaniy muhitda ikki yoki undan ortiq matnlarning o'zaro ta'siri tushuniladi, uning yakuniy maqsadi asl matnga iqtiboslar, ma'lumotnomalar,<sup>1</sup> kiritishdir. *Endi yuraging siqilmasin-da, bitta rivoyatni eshit: Hijoz bilan Falastin o'rtasida Aqaba ko'rfazida yashovchi madyan xalqiga Alloh taolo Shuayb alayhissalomni payg'ambar etib yuborgan. Madyanliklar ichida o'lchovda aldab, bironing haqini urib qolish odati avjida ekan. Ularning diyori savdo karvonlari o'tadigan asosiy markaz bo'lib, u yerda savdo rivojlangan. Bu qavm faqat tarozida emas, boshqa sohalarda ham bironing haqini urib qolishga usta ekan. Shuayb alayhissalom ularni insofga chqirganlarida ular ul zotni yolg'onchiga chiqardilar. Shunda Alloh taolo ularni azobga tortdi. O'lkani g'oyat isitib yubordi. Nafas olib bo'lmaydiga darajaga yetganda osmonda bulut ko'rinib, hamma uning soyasida orom topmoq istagida to'plandi. Shunda bulutdan chaqmoq chaqib, o't-olov chiqib, barchalarini kuydirib yubordi.*

*Hoji ona gaplarim qanday ta'sir qilypti eka, degan ma'noda unga tikilib turdi.* (“Qaytish”, 357-b.) Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy asar o'z qahramoniga qarata aytilgan bo'lsa-da, tag zamirida o'quvchi ongiga ta'sir qilish bor. Bu rivoyatning matnga olib kirilishi asosiy matndagi voqea rivoji bilan bevosita bog'liq va

<sup>1</sup> Xoshimova D. Allyuziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o'zaro bog'lanishi. Academic research in educational sciences. Vol.2.2021. Page 1393.

yozuvchining badiiy niyatiga uyg'un tarzda mazkur rivoyatga mazmuniy ehtiyoj mavjud, matnlar o'rtasidagi shakliy-lisoniy bog'lanishni esa *Endi yuraging siqilmasin-da bitta rivoyatni eshit* gapi ta'minlagan. Yozuvchilar ba'zan bunday intermatnlardan (Iqtibos) kitobxonning qahramonga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini shakllantirish va uning hayot tarzini kuzatish barobarida yetarli xulosa chiqarishlari uchun foydalanadilar. Quyida shunday shakl va mazmunga ega bo'lgan intermatnlarga namunalarni ko'rib o'tsak:

*Xuddi shu vazir besh yil muqaddam kelib, shoh yo'qlayotganini aytganda u "Olimlarning yomoni – amirlarni ziyorat qilgani, amirlarning yaxshisi – olimlarni ziyorat etganidir. Faqirning eshigiga kelgan amir naqadar xush va amirning eshigiga borgan faqir naqadar noxushdir", degan sharaflil hadisga amal qilib, shoh saroyiga borishdan bo'yin tovlagan edi. ("Nomus", 11-12-b.)*

*Tijoratda savob borligi to'g'ri, lekin xarom aralashgan tijoratdan savob kutmagin. Afsuski, Qur'oni Karimni qo'lga olmagan ko'rinasan. O'qiganingda edi, Isro surasidagi "O'lchagan chog'ingizda to'liq o'lchang va to'g'ri tarozi ila torting. Ana o'sha yaxshidir va oqibati go'zaldir", degan ma'noni fahmlagan bo'larding. ("Qaytish", 356-357-b.)*

Bundan tashqari yozuvchi o'zining fikrlarini asar xulosasi sifatida berayotgan vaqtda ham fikr go'zalligi, mazmundor, va ifodali bo'lishi uchun ham intermatn keltirishdan samarali foydalanishi ham mumkin. Qur'oni Karim oyatlari va hadislar bu borada benazir o'ringa ega:

*Shunday ekan, ularga do'zax azobi tayyorlab qo'yilgan. Unga qadar, ya'ni o'lim farsihtasiga duch kelgunlaricha tortadigan bu dunyo azoblari ham bor. Zotan, Alloh derki: "Ey oda farzandi! Yaxshi eshitib olginki, bandalarimdan hech hech biri o'zining zulmi, makr-hiylasi, chaqimchiligi, tajovuzkorligi va g'araz-u hasadidan odamlarni tinch qo'ymagunicha, o'zi ham Mening azoblarimdan tinch va omonda bo'lmaydi".*

Hozirgi kunda badiiy matnni boshqa bir matnlar bilan bog'lab o'rganish, ular orasidagi uzviy aloqani aniqlash, matnlarni bog'lashga xizmat qiluvchi birliklarni tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Bu izlanish va tahlillar natijasida fanga intertekstuallik tushunchasi kirib keldi.<sup>1</sup>Tohir Malik hikoyalarida ham ana shunday intertekstuallik keng qamrovli bo'lib, bunda ijodkor nafaqat boshqa badiiy asarlar bilan, balki, o'z asarlarini ham adabiy aloqaga moslagan holda yozish hollari borki, bunda voqealar aynan bir syujet chizig'ida birlashmaydi. Har birining o'z kelish o'rni bor. Xususan, "Vasiyatnoma" asarida keltirilgan "bodring tuzlash" (*Kuyovingizga arzonroq bodring uchragan ekan, bir qopini ko'tarib kelibdilar. Vaqtida tuzlanmasa, irib ketadi-ku?*

<sup>1</sup> O'rinova Z. Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o'rni. *Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*.jan.3(1).2023. page 98.

*Ertalab azonda yetib kelaman.) an'anasi yozuvchining "Sunami" asarida ham keltirilgan: Naimaning bugun yotib qoling degan iltimosiga "Bugun bodring tuzlashim kerak. Pochchangni bilasan-ku, qishi bilan tuzlama yeb chiqadi", deb javob qilgandi. Har ikkala asarda ham ona obrazi og'ir holatda, joni uzilib turay degan vaziyat, lekin qizlarning uyga tezroq borib bodring tuzlash g'amlari yozuvchining katta tanqidiy nigoh bilan o'quvchiga eslatish ekanini birlamchi holatda tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining maqsadini anglash uchun esa ixtiyoriy intertermatlilikning akspressivlik hodisasiga hamisha ta'siri sezilarli bo'lishini tushunib yetmoq zarur. Shuning bilan birga "Alvido, Otello" hikoyasida ham intermatn qo'llanilganki, u quyidagicha: *Kecha gazetalar shov-shuv boshlashdi. Bundan o'n yetti ilgari Mervin Stivenson degan kishining Amerikadan sotib olib kelgan qimmatbaho bir iti yo'qoladi. Stivenson Mak Stoun degan kishidan gumon qilib, janjal ko'taradi. Ammo hech ish chiqarolmaydi. Oradan ko'p o'tmay, Stounning uch yashar o'g'li yo'qoladi. Yillar o'tib it mojarosi unutiladi. Stoun ham o'g'lidan umidini uzadi. Kecha Nyustritda odamlar g'alati voqeaning guvohi bo'libdilar. Baquvvat bir yigit Stivensonning uyidan ko'chaga otilib chiqib, odamlarga qarab vovullabdi. Yetti kishining kekirtigidan tishlab, uzib tashlabdi-da, yana uyga qochib kirib ketibdi. Ma'lum bo'lishicha, bu yigit Stounning o'n yetti yil ilgari yo'qolgan o'g'li ekan. Stivenson "Stoun mening itimni gumdon qildi. Eni uning o'g'li itim o'rnini bosishi kerak", deb bolani o'n yetti yil davomida bir xonada saqlabdi. Xonadagi karnaydan faqat itlarning ovozi eshitilarkan. Necha ming kilometrli kinolentalarga ham itlar olingan ekan. Xullas, Stivenson bola ongiga itlarning fe'lini singdiribdi.**

Berilgan badiiy matndagi intermatndan adabiy-didaktik xulosadan tashqari tilshunoslikka oid quyidagicha xulosa chiqarish o'rinlidir. Jamiyatda tilning qimmati u so'zlashadigan, iste'mol qiladigan shaxslar bilan bir butunlikda ekanligi, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz esa til bo'lmasligidadir. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq ekanligini ya'ni keltirilgan matnga sotsiologvistik nuqtayi nazaridan qarash kerakligini bildiradi. Zero, insonning insoniylik qiyofasi uning tili va madaniyatidan anglashiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asarlardagi o'zaro aloqalar va iqtiboslarning o'rni Tohir Malik ijodida katta rol o'ynaydi va har birining o'z estetik vazifasi va maqsadi mavjud. Yuqorida keltirilgan misollar orqali ko'rinib turibdiki, allyuziv fakt yoki ma'lumotni lisoniy shaxs xotirasida jonlantirishda intermatnlar katta ahamiyatga ega. Ixtiyoriy intertekstuallikdan foydalanish esa parallel belgilar yoki chizmalar kabi oddiy bo'lishi, lekin har ikkisida ham yozuvchi badiiy maqsadi va ekspressiv mazmun birlamchi o'rinda turadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2008.
2. Xoshimova D. Allyuziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o‘zaro bog‘lanishi. Academic research in educational sciences. Vol.2.2021.
3. O‘rinova Z. Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o‘rni. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences.jan.3(1).2023.
4. T.Malik Doka ro‘mol qachon quriydi. – Toshkent,2021.
5. Tohir Malik Voy,Onajonim... Toshkent,2019.
6. Tohir Malik Somon yo‘li elchilari // Ilmiy-fantastik qissa va hikoyalar. A.Navoiy nomidagi O‘zMu kutubxonasi.T.: 2012-y.